# XORIJIY TIL O'QITUVCHILARNING XALQARO SERTIFIKATLARINI QO'LGA KIRITISH MASALALARI.

***Yakubova Zaytuna Zayniyevna***

*G'ijduvon tuman 1-son kasb-hunar maktabi umumta'lim fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:**Ushbu maqolada xorijiy til o'qituvchilarining xalqaro sertifikatlarni qo'lga kiritishida amalga oshirilgan ishlar, mavjud muammolar va taklif etilgan yechimlar haqida so'z borgan.
**Kalit so'zlar:** Xalqaro sertifikatlar, pedagogik mahorat.

**Аннотация:**В данной статье рассказывается о проделанной работе, существующих проблемах и предлагаемых решениях для преподавателей иностранного языка для получения международных сертификатов.
**Ключевые слова:** международные сертификаты, педагогическое мастерство.

**Annotation:**This article talks about the work done, existing problems and proposed solutions for foreign language teachers to obtain international certificates.
**Key words**: international certificates, pedagogical skill.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "2022−2026 yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida»gi farmoniga asosan

- xalqaro tan olingan sertifikatga ega pedagog kadrlarga — ularning tarif stavkasiga nisbatan 50 foiz miqdorida;
- xalqaro standartlar talablariga javob beradigan milliy baholash tizimida olingan sertifikatga ega pedagog kadrlarga -ularning tarif stavkasiga nisbatan 50 foiz miqdorida;
- Davlat test markazining milliy baholash tizimida olingan sertifikatga ega pedagog kadrlarga — ularning tarif stavkasiga nisbatan 20 foiz miqdorida (chet tili bo'yicha sertifikatlar bundan mustasno) ekanligi belgilab berildi.

Mazkur farmonning amaliyotga tadbiq etilishi mamlakatimiz bo'ylab ko'plab pedagoglarimizning faoliyati samaradorligini oshirish, ularning o'z ustida ishlashi uchun haqiqiy motivatsiya bo'lib xizmat qildi. Haqiqatdan ham xalqaro sertifikatlarga ega o'qituvchilar dars jarayonida talabalarga yanada mustahkam bilim berishi, ularda gapirish, muloqot qilish, insholar yozish kabi ko'nikmalar shakllanishida muhim ahamiyat kasb etdi. Biroq, hali bu borada yetarlicha muammolar bor deb o'ylaymiz:

- pedagoglarimizning zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan samarali foydalana olmasligi xorijiy til bo'yicha yangiliklardan samarali foydalanish imkoniyatini cheklaydi;
- ko'plab pedagoglar oliy ta'lim mobaynida nazariy bilim bilan cheklanganligi hisobiga ularda gapirish va yozma ma'lumot berish ko'nikmalarini shakllantirish ko'p vaqt talab qilishi mumkin;
- xorijiy tillar bo'yicha kurslar va adabiyotlarning qimmatligi va h.k.

Mazkur muammolarning yechimi sifatida quyidagilarni taklif etamiz:

- xorijiy til sertifikatini qo'lga kiritgan pedagoglarni rag'batlantirish muddatlarini yanada uzaytirish;

- pedagoglarning noutbuk, zamonaviy axborot texnologiyalari bilan ta'minlanganlik darajasini oshirish uchun ularga maxsus chegirmaviy dasturlar ishlab chiqish;
- xorijiy til bo'yicha haqiqiy imtihonga o'xshash mashq testlarini har oyda hududlarda o'tkazishni tashkil qilish.

**Adabiyotlar:**

1. Шадиев, А. Х. (2020). Факторы, влияющие на развитие экотуризма. Достижениянауки и образования, (5 (59)), 31-32.
2. Shadiyev, A. (2022). O 'QUV EKSKURSIYASI-TURIZMNI O 'QITISHNING INNOVATSION USULI SIFATIDA. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 13(13).
3. 3.Mahmudovna, Q. G. (2024). RAQOBAT STRATEGIYALARI, ULARNI AMALGA OSHIRISHDA INNOVATSIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI. *IQTISODIYOT VA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYA JURNALI| JOURNAL OF ECONOMY AND MODERN TECHNOLOGY*, *3*(5), 15-21.
4. 4.Mahmudovna, G. G. (2024). COMPETITIVE STRATEGIES, THE IMPORTANCE OF USING INNOVATION IN THEIR IMPLEMENTATION. *IQTISODIYOT VA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYA JURNALI| JOURNAL OF ECONOMY AND MODERN TECHNOLOGY*, *3*(5), 8-14.
5. 5.Mahmudovna, Q. G. (2024). OLIY TA'LIM MUASSASALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI TAVSIFLOVCHI OMILLAR. *Gospodarka i Innowacje.*, *46*, 620-627.
6. 6.Mahmudovna, Q. G. (2024). OLIY TA'LIM MUASSASALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION FAOLIYATNING AHAMIYATI.